




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

SHIMOLIY XORAZMDAGI AYRIM TARIXIY GODONIMLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH

COMPARATIVE ANALYSIS OF SOME HISTORICAL MONUMENTS IN NORTHERN KHOREZM

Ma'mura RAMATOVA,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/WHCJ5759

Annotation. *This article examines the origin and historical characteristics of some historical godonyms in the Northern Khorezm region based on a comparative analysis. The similarities and differences between the old godonyms in these areas were identified, and the importance of godonyms in the science of toponymy was highlighted.*

Key words. *Urbanomics, toponym, godonym, natural nomination, artificial nomination*

Toponimikaning kichik bo'limlaridan biri urbanonimika (lot. *urbanus* – *shahar*), u har qanday shahar ichidagi topografik obyektning o'z nomini, shu jumladan, godonim, agoronim, xoronim, ekklesionim, oykodomonimlarni o'rganish bilan shug'ullanadi [Бегматов, Улуков 2006: 87]. Onomastik manbalarda ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar va boshqalar nomlarni urbanonimika doirasida ko'rib chiqish odatiy holdir, chunki godonimlarga bo'lgan qiziqish birinchi navbatda shahar muammolarini o'rganish, shahar ichidagi makonni tartibga solish, manzil obyektlarini nominatsiya qilishning umumiy tamoyillarini shakllantirish zarurati bilan paydo bo'ldi. Mamlakatning mustaqillikdan oldingi davrida ko'cha nomlarini abadiylashtirish vositasi sifatida foydalanish ham masalaning ushbu tomonini kengroq o'rganib chiqishga zaruriyat tug'diradi. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin joy nomlariga e'tibor kuchaydi, yangi geografik obyektlar milliy mafkuramizga mos holda nomlana boshlandi. Bu esa yurtimizdagi ijtimoiy o'zgarishlar, shaharlar va viloyat markazlarining o'sishi yangi onomastik birliklar, shu jumladan, godonimlar sonining ko'payishiga olib keldi. Shu munosabat bilan bu nomlarning lingvistik maqomini har tomonlama tavsiflash, ularning madaniyat fakti sifatidagi ma'nosini aniqlash, shuningdek, godonimlarni tarixiy va zamonaviylik jihatdan ko'rib chiqish zarurati tug'iladi

O'rganilayotgan hududlardan biri bo'lmish, Gurlan tumani Xorazm viloyatining shimolida joylashgan tuman bo'lib, 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan.

Gurlan so'zining etimologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, professor Z. Do'simov: "Gurlan so'zining paydo bo'lishi turkiy-mo'g'ul davri bilan bog'liqdir. Mahalliy aholi Gurlan aslida Ko'rlang bo'lib, aholi joylashgan Gurlan deb talqin", - deya ta'kidlaydi. Mo'g'ul tilida bog', hovli ma'nosini anglatuvchi *xureelen* so'zi mavjud. Bu talqinga ko'ra, u "to'xtash joyi" degan ma'noni anglatadi. [Дўсимов, Эрамов 1977: 45-46]. YUNESKO akademigi Xudoyor Ollayorovning talqiniga ko'ra: "Gurlan so'zi Gurlan-Go'r olon, ya'ni olon urug'ining go'ri, qabristoni" degan ma'noni anglatadi. [Bekmuhammad 2023: 23-27]. Z.Do'simov o'zining "Xorazm toponomikasi" kitobida; "Gurlan mo'g'ulcha *Kurelen*, *Kuren* so'zlaridan olingan bo'lib, "atrofi o'ralgan qishloq" degan ma'noni anglatadi. [Дўсимов.1985:34]. Suyun Qorayev gurlanda shu nom bilan ataluvchi kichik urug' bo'lgan. Gurlan so'zi ham shu urug'lar nomidan kelib chiqqan deyilgan [Qoriyev 2006: 83].

Yangibozor tumani – O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatidagi tuman hisoblanib, 286-sonli qarori asosida 1950-yild 27-aprelda tashkil etilgan. Keyinroq Urganch va Gurlan tumanlariga qo'shib yuborilgan. Tuman yangidan 1989-yilda tashkil etildi.

Xiva xonligi davrida Yangibozor hududiga Qiyot-Qo‘ng‘irot deb nom berilgan. Yangibozor toponomikasi “yangi” va “bozor” so‘zlarining qo‘shilishidan kelib chiqqan [Bekmuhammad 2023: 34-38]. A.Nabiyeov Yangibozor – aholining savdo-sotiq bilan faqat qala bozorida shug‘ullanganlar. Keyinchalik aholi chekka qishloqlarning birida bozor tashkil qiladi va qal’a bozorida farqlanib turishi uchun Yangibozor deb nom beradi. Shundan keyin bu yerlar Yangibozor nomini oladi [Nabiyeov 1995: 243].

Ushbu tarixiy bo‘limda manzil obyektlari nomlari, ya’ni Gurlan va Yangibozor tumanlarning inqilobdan oldingi davr nomlari asosan, Xorazm viloyatining “Kolxoz ovozi”, “Xorazm haqiqati” nomli gazetalarning 1950-1980-yillardagi sonlari, hamda Gurlan tumani arxitektura va arxiv bo‘limlaridan topilgan 1968, 1969, 1975-yillardagi xaritalar va mazkur hududlarda yashab kelayotgan keksa yoshdagi axborotchilardan olingan og‘zaki materiallar, hamda ilmiy adabiyotlar va internet manbalaridan to‘plangan quyidagi nomlarni tahlil qilamiz.

Sovet davri kolxozlar nomlari	Sovet davri ovul va elat nomlari nomi	Eski xaritalardan yig‘ilgan ko‘cha nomlari
Karl Marks Kirov Bolshevik Andreyev Kommuna Pravda Lenin Leninizim Kommunizm Moskva Madaniyat Kuybeshev Guliston Leningrad O‘zbekiston Malenkov Varshilov Pak Nadejda	Ko‘rpachi ovuli, Loy xandaq ovuli, Toza posilka ovuli, Gayaklar ovuli, Qoriylar ovuli, Begovul elati, Ko‘rpachi ovuli, Maxsimlar ovuli, Sobir Abdi bobo ovuli, Madamin Mahmud ovuli, Beshinchi brigada, Oltinchi brigada, Karitlar ovuli, Ko‘nchilar ovuli, Sobinchilar ovuli, Xo‘jalar ovuli, Maxsimlar ovuli, Ko‘salar ovuli, Gachchilar ovuli, Ovushlar ovuli, Jannat ovuli, Toqimlar ovuli, Japoq bobo ovuli, Jamsh ovuli, Chuchchilar ovuli, Kuchanchilar ovuli, Hojilar ovuli, Xandak yop bo‘yi ovuli, Eshvoylar ovuli, Shixlar ovuli, Uyg‘uryop ovuli, Ko‘l ovul, Jumiyoz qoq ovuli, To‘ra ko‘sa ovuli, Kulollar ovuli, Xandaq yopbo‘yi ovuli, Oqmon choponfurush ovuli, Ko‘llar ovuli, Qorilar ovuli, 3-6-brigada ovuli, . Qangli ovuli, Ramoq ovuli, Qo‘yboqlar ovuli, Kuchanchilar ovuli, Qoraqoshlar ovuli, 6-sonli brigada, Usta ovul, Kuya ovul, Esabiy ovuli, Chaqon ovuli, Kenagas ovuli, Taxtako‘pir ovuli, Margubat elati, Eshat ovul, Sumar ovul, Abdollor ovuli, Sherlar ovuli, Maydonqal’a ovuli, Voroshilov kolxozi, K.Marks kolxozi, Kaganovich kolxozi, I-May kolxozi.	Andreyev, Makareno, Revolyutsiannaya, Dom Sovetov, Sovetskaya, Kommunistcheskaya, Kommunizm, Sotsalizm Xrushchev, Komsomol Partiya XXI seyzdi Pobeda, Chkalov Kommuna, Qizil O‘zbekistan, Stalin, Telman Jdanov, Lelina, Luchebnaya, A.Babayeva, Gagarin I, Chexov, Makarenka, Repena, Tereshkova, Auchibaya, M.Gorkogo, Kuyvashev, Kalinina, Gagarina, Lermontov, Frunze,

Nominatsiya jarayoni o‘z-o‘zidan sodir bo‘lganligi sababli, birinchi godonim paydo bo‘lishining aniq sanasini faqat taxmin qilish mumkin xalos.

O‘rganilayotgan shaharlarning godonimikonini shakllantirishning dastlabki bosqichiga xos bo‘lgan asosiy qonuniyatlarni ko‘rib chiqsak, Birinchidan, jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikkala shaharda ham inqilobdan oldingi davrda manzil obyektlari belgilash uchun asosan ovul atamasidan keng foydalanilgan. Sabab, biz o‘rganib chiqqan eski yilnomlarda asosan tuman markazidagi ko‘cha nomlarigina saqlangani, markaz bo‘lmagan hududlarda asosan mahalla, ko‘cha yoki biror bir kichik hududni tasvirlashda asosan “ovul” indikatoridan foydalanilgan degan xulosaga keldik.

Misol uchun Gurlan tumanidagi Jaloyir mahallasiga e'tibor qaratsak, XX asr boshlarida mazkur el "Jaloyir" elati sifatida shakllanib ulgurgan edi, o'z tarkibida 10 ta katta-kichik ovullarni birlashtirgan hisoblanadi.

- "Qullar" ovuli - 4 ta xonadon;
- "Tulan" ovul - 3 ta xonadon;
- "Maxonchilar" ovuli - 5 ta xonadon;
- "Arablar" - ovuli 4 ta xonadon
- "Salikilar" - ovuli 3 ta xonadon;
- "Dadak" ovuli - 2 ta xonadon;
- "Qorakasak" ovuli - 3 ta xonadon;

1950-yillarga kelib, ushbu tarqoq ovulchalar birlashib, "Jaloyir" qishlog'i, deya nomlana boshlangan. Yuqorida har bir ovulda keltirilgan xonadonlar soniga to'xtalsak, o'sha davrlarda juda kichik hududlarni hamda, u yerda mavjud bo'lgan ko'chalarni nomlashda ham ovul so'zidan foydalanilgan degan xulosaga keldik.

Ammo shuni ta'kidlashni istardimki, ovul so'zining ma'nosi zamonaviydan farq qilar edi. Bu termin hozirgi vaqtda shahar xaritasida kam uchraydigan atama hisoblanadi. Ikkinchidan, godonimik tizimning shakllanishining dastlabki bosqichi shunisi bilan xarakterlanadiki, manzil obyektlari nomlari asosan tabiiy yo'l bilan vujudga kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa sun'iy nomlash tartibli tus ola boshlaydi, bu esa madaniyatning yevropalashuvi bilan bog'liq bo'lib, uning eng yuqori darajasi mustaqillikdan keyingi davrga to'g'ri keladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar (A. V. Superanskaya, Z. I. Komarova, M. V. Golomidova va boshqalar) tabiiy va sun'iy nominatsiya o'rtasidagi yaqin bog'liqlikka e'tibor qaratib, ularni tildagi "stixiyali" va "ongli" jarayonlar bilan bog'laydilar. M. V. Golomidova tabiiy va sun'iy nomlash jarayonlarini qiyoslab, quyidagi xulosalarga kelgan: "Tabiiy nominatsiya – bu institutsionallashtirish (rasmiy tizimga kiritilgan) magan muloqot sohalaridagi diskurs mahsuli bo'lib, yangi nomning ma'no va shakli til jamoasi tomonidan stixiyali tarzda sinovdan o'tkazilishi va qo'llanish jarayonida mustahkamlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonda til jamoasi og'zaki nutq faoliyatida yangi nomning qanday va qaysi obyektga nisbatan qo'llanishini anglab yetadi, uning variantlarini aniqlaydi, sinab ko'radi va tan oladi. Sun'iy nominatsiya esa, o'z navbatida, tizimlashtirilgan kommunikatsiya doirasiga mansub bo'lgan nominativ akt bo'lib, oldindan rejalashtirilgan va ommaviy qo'llanishga mo'ljallangan nomni yaratishga qaratiladi". [Golomidova 1998: 45]. Shu bilan birga, sun'iy nominatsiya jamiyatning ma'naviy va amaliy ehtiyojlariga javob beradi, tabiiy nominatsiya modellaridan foydalanadi hamda til egalarining lingvistik tajribasiga tayangan holda shakllanadi.

Yuqoridagi jadvalimizga e'tibor beradigan bo'lsak, ko'chaning shaxs bilan bog'liqligi asosida nomlash prinsipi boshqalariga qaraganda yuqori bo'lgan. Yurtimizda xonliklar davrida qadimiy eski nomlar sovet jamiyati mafkurasiga umuman to'g'ri kelmasdi. Shu sababdan sovet davrida asta-sekin shaharlar xaritalaridan agionimlar bilan bog'liq va eski hayot atributlari bilan bog'liq nomlar olib tashlandi. Ya'ni turli xil kelib chiqish yoki laqablarga asoslangan ovul indikatori bilan yuritilgan nomlar o'rni rus mafkurasiga moslangan yangi nomlar egallay boshladi. Bu esa ko'chalar taniqli inqilobchilar yoki faoliyati proletariat uchun ijobiy deb baholangan va partiya mafkurasiga zid bo'lmagan odamlar nomi bilan atala boshlandi.

Sovet davri godonimik tizimi bir nechta komponentlardan tashkil topgan:

1. Ideologik abstrakt ijtimoiy, falsafiy va siyosiy leksikaga asoslangan nomlar uchun: yubiley sanalari, birinchi may, sovet, kommunizm, komsomol, tinchlik ko'chalari va boshqalar.
2. "Inqilob rahbarlari" ning ismlari va taxalluslari, marksistik ta'limotga asoslangan nomlar uchun: *Marks, Engels, Lenin, Stalin nomlari*
3. Inqilob rahbarlarining yordamchilari nomlari uchun: *Kalinin, Kaganovich, Jdanov, Kuybishev, Orjonikidze, Kirov*.
4. Inqilob qo'riqchilarining ismlari va taxalluslari asosida: *Voroshilov, Frunze, Dzerjinskiy, Menjinskiy nomlari*

5. Yozuvchilar, mutafakkirlar, madaniyat va san’at arboblarning mafkuraviy indekslangan ismlari uchun: *M. Gorkiy, Pushkin, Lermentov, Gagarin, Tereshkova* va boshqalar kabilar tanlagangan.

Xulosa qilib shuni aytolamizki, yig‘ilgan manbalardan kelib chiqqan holda 1950-yildan 1991-yilgacha bo‘lgan davr shaharlarning toponimik makonidagi sezilarli o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi, bu asrlar davomida rivojlanib kelayotgan an‘analarni buzish davri desak ham bo‘ladi. Mustamlaka davrida deyarli barcha nomlarning keng ko‘lamda qayta nomlanishi Shimoliy Xorazm shaharlarining godonimik tizimiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Urbanonimlarni yangi hokimiyatning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari va qarashlariga moslashtirish nafaqat O‘zbekistonning barcha shaharlariga Gurlan va Yangibozor uchun ham xos hodisa hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Бегматов Э., Улуков Н. Ономастик терминлар луғати. – Наманган, 2006. – Б. 87.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати, – Т., 1977. 45–46 б.
3. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент, 1985. – Б. 34.
4. Bekmuhammad.U. Xorazm va Xorazmliklar. – Buxoro, 2023.
5. Голомидова, М. В. Искусственная номинация в русской ономастике: монография / М. В. Голомидова. – Екатеринбург: Уральский государственный педагогический университет, 1998. – 232 с.
6. Nabiyev.A. Tarixiy o‘lkashunoslik. – Toshkent: 1995. – 336 b.
7. Qorayev. S. Toponimika. O‘quv qo‘ll. – Toshkent, 2006. – 320 b.

